TURK ELI

International Scientific Journal



Volume 1 | Special Issue Part 2 | 2026

Manas, Kyrgyz Republic

www.turkeli.science

TURK ELI
INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL

The journal is officially registered as a mass media outlet by the Justice Department of Manas Region under the Ministry of Justice of the Kyrgyz Republic in accordance with Registration Certificate No. 10339 dated March 11, 2024. The journal is registered under the title “TURK ELI” International Scientific Journal and is authorized for publication in Kyrgyz, Turkish, Uzbek, Kazakh and English languages.

Honorary President
Sarvar Ispahi

Editor-in-Chief
Jenishbek Duysheev

Deputy Editor in-Chief
Rahmonali Hasanov

Editorial Board:

Ablat Khodjaev (Prof. Dr.)
Shakimashrip Ibraev (Prof. Dr.)
Shohistahon Uljaeva (Prof. Dr.)
Kubanychbek Kalchakeev (Prof. Dr.)
Abdimajid Madraimov (Prof. Dr.)
Shukhrat Sattorov (Prof. Dr.)
Ibrahim Kush (Dr.)
Faig Elekberli (Dr.)
Erdenebayar Nasanbat (Dr.)
Gulnara Anarbaeva (Dr.)
Nurgul Aldabek (Dr.)
Nurjamal Myrzabaeva (Dr.)
Takhirjan Kazakov (Dr.)
Elmira Hazratkulova (Dr.)
Azamat Kaliev (Dr.)
Abdulvakhidkhon Nuriddinov (Dr.)

About this Special Issue

This Special Issue presents selected papers from the International Scientific Conference
Ijtimoiy fanlar va jamiyat taraqqiyoti:
barqaror rivojlanishning strategik yo‘nalishlari

Technical Editor
Laziz Baxtiyorov

Publisher: turkeli.science
E-mail: editor@turkeli.science


TOSHKENT IQTISODIYOT VA TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI
TITU
TOSHKENT – 2022
TOSHKENT IQTISODIYOT VA TEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI
IJTIMOIY FANLAR FAKULTETI
IJTIMOIY FANLAR VA JAMIYAT TARAQQIYOTI:
BARQAROR RIVOJLANISHNING
STRATEGIK YO‘NALISHLARI
GLOBAL MIQYOS
STRATEGIYA VA TARAQQIYOT
ILM-FAN VA INNOVATSIYA
JAMIYAT VA INSON KAPITALI
XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA
ILM-FAN ORQALI BARQAROR KELAJAK SARI
2026-yil 15-may

K. G. Makhamatjonovna	The Importance of Scientific and Educational Resources in Improving the Information Environment of the Educational Process	91
S. Ociyev	The History and Fate of the Uzbek Delegates to the First Turkological Congress	93
M. Tuhtakhujaeva *G. Kadirova*	Resolving Conflicts between Teachers and Students in Schools: Distinctive Features of Collaboration with Parents	96
M. Nazarova	The Role of Modern Storage Technologies in Reducing Food Waste	100
Kh. Nizamova	The Grammatical Structure of Compliments in Analytic and Agglutinative Languages: A Comparative Study of English and Uzbek	103
S. Kh. Butaeva	The Global Integration of Digital Transformation and the Green Economy	106
Sh. T. Dadaboyev	Privileges and Opportunities Created under State Programs to Promote Youth Self-Employment	109
D. Tulevberdiyeva *G. Ergashev*	Economic Mechanisms for Developing Youth Entrepreneurship in the Digital Economy: The Case of Uzbekistan	112
P. Q. Kholmatov *M. Akhmedova*	Current Issues of Time Management in Pedagogical Practice: The Essence, Prerequisites, Origin, and Major Stages of the Development of Time Management	115
R. Khakimov *S. A. Dustnazarova* *S. Qodirqulov*	The Integration of the Digital Economy and Green Growth in New Uzbekistan: A Driver of Sustainable National Development	119

The Grammatical Structure of Compliments in Analytic and Agglutinative Languages: A Comparative Study of English and Uzbek

Nizamova Khilola (Senior Lecturer)[1]
nizamova.hilola@gmail.com | ORCID: 0009-0008-0741-1116
[1.] Tashkent University of Economics and Technologies
Tashkent, Uzbekistan

Abstract.
This study examines the grammatical structure of complements in analytic and agglutinative languages based on English and Uzbek. In the research, English is considered an analytic language, while Uzbek is treated as an agglutinative language, and their syntactic and morphological features are analyzed comparatively. The position of complements (objects) in sentence structure, their forms of expression, and mechanisms of grammatical connection are explored. It is also highlighted that in English, grammatical relations are mainly expressed through word order and auxiliary words, whereas in Uzbek they are formed primarily through affixes and case markers. The results of the study help identify similarities and differences between the two language systems and reveal specific features of grammatical structures from the perspective of linguistic typology.
Keywords: analytic language, agglutinative language, complement (object), grammatical structure, syntax, morphological analysis, English language, Uzbek language, case system, word order, linguistic typology

Analitik va agglutinativ tillarda komplimentlarning grammatik qurilishi (ingliz va o‘zbek tillari misolida)

Nizamova Xilola Boxodir qizi (katta o‘qituvchi)[1]
nizamova.hilola@gmail.com | ORCID: 0009-0008-0741-1116
[1.] Toshkent iqtisodiyot va texnologiyalar universiteti
Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya.
Mazkur ishda analitik va agglutinativ tillarda komplimentlarning grammatik tuzilishi ingliz va o‘zbek tillari asosida o‘rganiladi. Tadqiqot davomida ingliz tili analitik til sifatida, o‘zbek tili esa agglutinativ til sifatida tahlil qilinib, ularning sintaktik hamda morfologik jihatlari qiyosiy tarzda ko‘rib chiqiladi. Gap tarkibida kompliment (to‘ldiruvchi) larning joylashuvi, ularni ifodalash usullari hamda grammatik bog‘lanish mexanizmlari o‘rganiladi. Shuningdek, ingliz tilida grammatik munosabatlar asosan so‘z tartibi va yordamchi so‘zlar orqali ifodalanishi, o‘zbek tilida esa asosan qo‘shimchalar va kelishiklar yordamida shakllanishi yoritib beriladi. Tadqiqot natijalari ikki til tizimidagi o‘xshash va farqli jihatlarni aniqlashga hamda til tipologiyasi doirasida grammatik tuzilmalarning o‘ziga xos xususiyatlarini ochib berishga xizmat qiladi.
Kalit so‘zlar: analitik til, agglutinativ til, to‘ldiruvchi (kompliment), grammatik tuzilma, sintaktika, morfologik tahlil, ingliz tili, o‘zbek tili, kelishik tizimi, so‘z tartibi, tilshunoslik tipologiyasi

Kirish. Til insonning fikrlash va muloqot qilish jarayonini ta’minlaydigan eng muhim vosita hisoblanadi. Har bir til o‘zining grammatik tuzilishi, ifoda imkoniyatlari va sintaktik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Jahon tilshunosligida tillar tipologik jihatdan turli guruhlarga ajratilib, ular orasida analitik va agglutinativ tillar alohida o‘rganiladi. Ushbu tasnif tillarning grammatik ma’nolarni ifodalash usulini chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi.

Analitik tillarda grammatik munosabatlar asosan so‘z tartibi va yordamchi so‘zlar orqali ifodalansa, agglutinativ tillarda esa qo‘shimchalar va affikslar asosiy rol o‘ynaydi. Ingliz tili analitik til sifatida qat’iy so‘z tartibiga tayanadi va grammatik bog‘lanishlar ko‘proq sintaktik vositalar orqali amalga oshiriladi. O‘zbek tili esa agglutinativ til bo‘lib, unda grammatik ma’nolar asosan kelishik qo‘shimchalari va boshqa affikslar yordamida ifodalanadi[1].

Mazkur maqolada ingliz va o‘zbek tillarida komplimentlarning (to‘ldiruvchilarning) grammatik qurilishi qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi. Unda komplimentlarning gapdagi vazifasi, ifodalanish shakllari hamda grammatik bog‘lanish mexanizmlari o‘rganiladi. Shuningdek, har ikki tildagi sintaktik va morfologik xususiyatlar asosida ularning o‘xshash va farqli jihatlari yoritiladi.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, bugungi globallashuv sharoitida turli tillarning grammatik tizimlarini qiyosiy o‘rganish zarurati tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, ingliz tilining xalqaro muloqot vositasi sifatida keng qo‘llanilishi hamda o‘zbek tilining milliy til sifatida rivojlanib borayotgani ushbu tillarning grammatik xususiyatlarini chuqur tadqiq etishni talab etadi. Komplimentlarning qiyosiy tahlili nafaqat nazariy tilshunoslik uchun, balki tarjimashunoslik, amaliy lingvistika, korpus tilshunosligi va chet tillarni o‘qitish metodikasi uchun ham muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalari ingliz va o‘zbek tillari sintaksisini chuqurroq anglashga, tillararo grammatik muvofiqlikni aniqlashga hamda samarali o‘qitish metodlarini ishlab chiqishga xizmat qiladi[2].

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Mazkur mavzuni o‘rganishda jahon va o‘zbek tilshunosligida analitik hamda agglutinativ tillar tipologiyasi, shuningdek sintaktik va morfologik tuzilishga oid ilmiy manbalar muhim asos bo‘lib xizmat qiladi. Til tipologiyasi masalalari E. Sapir va J. Greenberg

kabi olimlarning tadqiqotlarida keng yoritilgan bo‘lib, ularda tillar grammatik ma’nolarni ifodalash usullariga ko‘ra turli guruhlarga ajratiladi.

Ingliz tilida kompliment (to‘ldiruvchi)larning grammatik tuzilishi, ularning gapdagi o‘rni hamda so‘z tartibi orqali ifodalanishi R. Quirk va S. Greenbaum kabi tilshunoslarning ishlarida batafsil tahlil qilingan. Ushbu manbalarda ingliz tilining analitik xususiyati, ya’ni grammatik bog‘lanishlarning asosan so‘z tartibi va yordamchi so‘zlar yordamida amalga oshirilishi alohida ta’kidlanadi[3].

O‘zbek tilshunosligida esa to‘ldiruvchilarning kelishik qo‘shimchalari orqali ifodalanishi hamda ularning sintaktik vazifalari A. Hojiyev va Sh. Rahmatullayev kabi olimlar tomonidan keng o‘rganilgan. Bu tadqiqotlarda o‘zbek tilining agglutinativ tabiati, ya’ni grammatik ma’nolarning affikslar vositasida berilishi asosiy xususiyat sifatida ko‘rsatiladi.

Ushbu ishda qiyosiy-tahliliy yondashuv asosiy metod sifatida qo‘llanildi. Mazkur metod yordamida ingliz va o‘zbek tillarida komplimentlarning grammatik qurilishi o‘zaro taqqoslanib, ularning umumiy va farqli jihatlari aniqlanadi. Bundan tashqari, tavsifiy metod orqali har ikki tildagi to‘ldiruvchilarning grammatik xususiyatlari bayon qilindi, tahliliy metod yordamida esa ularning gapdagi sintaktik vazifalari o‘rganildi[4]. Natijalar esa umumlashtirilib, ilmiy xulosalar shaklida ifodalandi.

Tadqiqot jarayonida ingliz va o‘zbek tillariga oid grammatik adabiyotlar, ilmiy manbalar hamda misol jumlalar asos qilib olindi. Ushbu yondashuv analitik va agglutinativ tillarda komplimentlarning grammatik qurilishini chuqur va qiyosiy tarzda tahlil qilish imkonini berdi.

Natijalar. Mazkur tadqiqot jarayonida ingliz va o‘zbek tillarida komplimentlar (to‘ldiruvchilar)ning grammatik qurilishi qiyosiy jihatdan tahlil qilinib, bir qator muhim natijalar aniqlandi.

Birinchidan, ingliz tili analitik til sifatida to‘ldiruvchilarning gapdagi joylashuvi qat’iy so‘z tartibi orqali belgilanishi ma’lum bo‘ldi. Ya’ni, ega, kesim va to‘ldiruvchi o‘rtasidagi munosabat asosan gapdagi tartibga bog‘liq bo‘lib, grammatik ma’no shu joylashuv orqali ifodalanadi[5].

Ikkinchidan, o‘zbek tilida to‘ldiruvchilar asosan kelishik qo‘shimchalari yordamida shakllanishi kuzatildi. Xususan, -ni, -ga, -dan kabi affikslar grammatik munosabatlarni aniq ko‘rsatib beradi va so‘z tartibining nisbatan erkin bo‘lishiga imkon yaratadi.

Uchinchidan, ingliz tilida prepozitsiyalar (yordamchi so‘zlar) to‘ldiruvchi ma’nosini aniqlashda muhim rol o‘ynashi, o‘zbek tilida esa bu vazifani asosan kelishik qo‘shimchalari bajarishi aniqlandi. Bu holat ikki til o‘rtasidagi muhim tipologik farqlardan biri ekanini ko‘rsatadi[6].

To‘rtinchidan, qiyosiy tahlil shuni tasdiqladiki, har ikkala tilda ham komplimentlar gapning muhim sintaktik elementi hisoblanadi, biroq ularning ifodalanish usullari turlicha tizimga asoslanadi.

Umuman olganda, o‘rganish natijalari analitik va agglutinativ tillar o‘rtasidagi grammatik tuzilishdagi farqlarni yaqqol namoyon etdi hamda ingliz va o‘zbek tillarida to‘ldiruvchilarning sintaktik vazifasini yanada chuqurroq anglashga yordam berdi.

Muhokama. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ingliz va o‘zbek tillarida komplimentlarning grammatik tuzilishi bevosita ularning tipologik xususiyatlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Ingliz tili analitik til sifatida grammatik munosabatlarni asosan qat’iy so‘z tartibi hamda yordamchi so‘zlar yordamida ifodalaydi. Bu esa gap tarkibida to‘ldiruvchilarning joylashuvini aniq va o‘zgarmas qiladi, natijada so‘z tartibi buzilganda gapning grammatik ma’nosi ham o‘zgarib ketishi mumkin[7].

O‘zbek tilida esa agglutinativlik xususiyati ustun bo‘lib, to‘ldiruvchilar asosan kelishik qo‘shimchalari orqali ifodalanadi. Bunday holat so‘z tartibining nisbatan erkin bo‘lishiga imkon yaratadi va gapdagi ma’no ko‘pincha morfologik vositalar orqali aniqlanadi. Shu sababli o‘zbek tilida sintaktik tartibdan ko‘ra morfologik belgilanish ustunlik qiladi.

Qiyosiy tahlil natijalari shuni ham ko‘rsatadiki, har ikkala tilda ham komplimentlar gapning asosiy ma’noni to‘ldiruvchi muhim sintaktik birlik hisoblanadi. Biroq ularning ifodalanish usullari turlicha tizimga asoslangan bo‘lib, bu til tuzilishidagi ichki farqlar bilan izohlanadi. Ingliz tilida funksional yuklama asosan sintaktik vositalarga yuklatilgan bo‘lsa, o‘zbek tilida esa bu vazifa ko‘proq morfologik vositalar orqali amalga oshiriladi. Bundan tashqari, ingliz tilida predloglar (prepositions) to‘ldiruvchilar bilan bog‘lanishda muhim ahamiyat kasb etadi, o‘zbek tilida esa bu funksiyani kelishik qo‘shimchalari bajaradi. Bu holat ikki til o‘rtasidagi eng muhim tipologik farqlardan biri sifatida namoyon bo‘ladi[8]. Shuningdek, til o‘rganish jarayonida mazkur farqlarni hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Xususan, o‘zbek tilida so‘zlashuvchi talabalar ingliz tilini o‘rganishda so‘z tartibiga qat’iy rioya qilishda qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin. Aksincha, ingliz tilida so‘zlashuvchilar uchun o‘zbek tilidagi kelishik qo‘shimchalarining ko‘pligi va ularning funksional vazifalarini o‘zlashtirish murakkablik tug‘diradi[9]. Shu bois mazkur tipologik farqlarni o‘quv jarayonida qiyosiy yondashuv asosida o‘rgatish samarali natijalar berishi mumkin. Ingliz va o‘zbek tillaridagi komplimentlarning qiyosiy tahlili ushbu tillarning grammatik qurilishi, sintaktik tizimi hamda morfologik xususiyatlari o‘rtasidagi umumiy va farqli jihatlarni chuqurroq anglash imkonini beradi. Mazkur tadqiqot natijalari qiyosiy tilshunoslik, tarjimashunoslik hamda chet tillarni o‘qitish metodikasi sohalarida ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot natijalari ingliz va o‘zbek tillarida komplimentlarning (to‘ldiruvchilarning) grammatik qurilishi hamda ularning qo‘llanilish xususiyatlari tilning tipologik tabiati bilan bevosita bog‘liq ekanligini ko‘rsatdi. Ingliz tili analitik til sifatida grammatik munosabatlarni asosan qat’iy so‘z tartibi, yordamchi so‘zlar va predloglar vositasida ifodalasa, o‘zbek tili agglutinativ til sifatida grammatik ma’nolarni kelishik qo‘shimchalari hamda boshqa morfologik vositalar orqali ifodalaydi. Shu sababli ingliz tilida sintaktik omillar ustuvor ahamiyat kasb etsa, o‘zbek tilida morfologik vositalarning roli kuchliroq namoyon bo‘ladi[10].

Qiyosiy tahlil natijalari har ikkala tilda ham komplimentlar gapning mazmuniy va grammatik yaxlitligini ta’minlovchi muhim sintaktik birlik ekanligini tasdiqladi. Ular harakatning obyekti, yo‘nalishi yoki unga bog‘liq bo‘lgan boshqa munosabatlarni ifodalash orqali gapning semantik mazmunini boyitadi va aniqlashtiradi. Biroq bu vazifaning amalga oshirilish mexanizmlari til tizimining ichki qonuniyatlariga muvofiq ravishda turlicha namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot davomida aniqlangan tipologik farqlar nafaqat nazariy tilshunoslik, balki amaliy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega ekanligi kuzatildi. Xususan, ushbu natijalar ingliz va o‘zbek tillarini o‘qitish metodikasini takomillashtirish, tarjima jarayonida uchraydigan grammatik muammolarni bartaraf etish hamda qiyosiy tilshunoslik tadqiqotlarini rivojlantirish uchun muhim ilmiy manba bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Shuningdek, mazkur tadqiqot analitik va agglutinativ tillarning sintaktik hamda morfologik tizimlari o‘rtasidagi o‘xshash va farqli jihatlarni yanada chuqurroq anglash imkonini beradi. Kelgusida komplimentlarning semantik, pragmatik va

kommunikativ xususiyatlarini kengroq qamrovda o‘rganish, shuningdek, boshqa tillar bilan qiyosiy tahlillarni amalga oshirish ushbu yo‘nalishdagi ilmiy izlanishlarni yanada boyitishga xizmat qiladi.

References

1. Sapir, E. (1921). Language: An Introduction to the Study of Speech. New York: Harcourt, Brace and Company.
2. Greenberg, J. H. (1963). Universals of Language. Cambridge, MA: MIT Press.
3. Quirk, R., Greenbaum, S., Leech, G., & Svartvik, J. (1985). A Comprehensive Grammar of the English Language. London: Longman.
4. Biber, D., Johansson, S., Leech, G., Conrad, S., & Finegan, E. (1999). Longman Grammar of Spoken and Written English. London: Longman.
5. Huddleston, R., & Pullum, G. K. (2002). The Cambridge Grammar of the English Language. Cambridge: Cambridge University Press.
6. Hojiyev, A. (2002). O‘zbek tili grammatikasi. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.
7. Rahmatullayev, Sh. (1992). Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent: O‘qituvchi.
8. Nurmonov, A. (2008). O‘zbek tilshunosligi. Toshkent: Akademnashr.
9. Comrie, B. (1989). Language Universals and Linguistic Typology. Chicago: University of Chicago Press.
10. Crystal, D. (2003). The Cambridge Encyclopedia of the English Language. Cambridge: Cambridge University Press.